

BASKETBOL O‘YININI TASHKIL ETISH VA UNING TEXNIK USULLARI

Narziqulov Iftixor Farmonovich

Samarqand Zarmed universiteti o‘qituvchisi

Berdiyev Farxod Ochilovich

Toshkent amaliy fanlar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada basketbol o‘yini taktikasi va texnik usullari, o‘yin jarayonini tashkil qilish hamda uni o‘rganishda foydalaniladigan metodlar haqida batafsil bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: basketboll, chidamlilik, layoqatlilik, jismonioy mashqlar, pedagog, talabalar, ta’lim dasturi va h.k.

Аннотация. В данной научной статье подробно описываются тактика и технические приемы баскетбольной игры, организация игрового процесса, а также методы, используемые при ее изучении.

Ключевые слова: баскетбол, выносливость, умение, физические упражнения, педагог, студенты, учебная программа и т.д.

Abstract. This scientific article describes in detail the tactics and technical techniques of the basketball game, the organization of the game process, as well as the methods used in studying it.

Key words: basketball, endurance, skill, physical exercises, pedagogue, students, curriculum, etc.

Basketbol (from English: basket - корзина [korzina - basket], ball - мяч [myach - ball]) - is a team sport with a ball, consisting of two teams of 5 people each...

Basketbol (inglizcha: basket-savat bol-to‘p - polga urib qaytarmoq va ball – “to‘p”) to‘pli sport o‘yini bo‘lib, har biri 5 kishidan iborat ikki jamoa bilan o‘rtasidan to‘r tortilgan maydonchada o‘ynaladi. O‘rtasidan to‘r bilan (erkaklar musobaqasi uchun 15 m 28 m maydonchada o‘ynaladi. Basketbol bir jamoa 5 kishidan iborat bo‘lib, 2 jamoa o‘ynaydi. O‘yinchilar to‘pni qo‘l bilan urib, raqib savatchasiga tushirishga harakat qiladilar. Koptokni qo‘l bilan o‘ynab raqiblar savatga tushirish lozim. Musobaqa 2 yoki 4 partiya o‘ynaladi. Basketbol AQShda paydo bo‘lgan (1891).

Xalqaro Milliy Basketbol Assotsiatsiyasi (MBA) tashkil etilgan Olimpiya o‘yinlari dasturlariga kiritilgan, jahon birinchiliklari o‘tkaziladi. Basketbol O‘zbekistonda 1920-yildan o‘ynaladi. O‘zbekiston Respublikasi 1991-yil Xalqaro basketbol federatsiyasiga, 1992-yil Osiyo basketbol konfederatsiyasiga a‘zo bo‘lib kirdi. O‘zbekistonda bu sport turi bilan 500 mingdan ortiq kishi muntazam shug‘ullanadi. U maktablarda ommaviy tus olgan, jismoniy tarbiya bo‘yicha dasturning ajralmas qismi hisoblanadi[1]. Basketbol 1891-yilda Amerika Qo‘shma Shtatlarida yosh xristianlar ittifoqini jismoniy tarbiya bo‘yicha rahbari pastor Jeymis Neymis tomonidan yaratilgan. U basketbol o‘yinini oddiy, ko‘p mablag‘ sarflamasdan tashkil etishni ko‘zda tutib yangi o‘yinning qoidalarini ishlab chiqdi. O‘yin nomini basketbol deb nomladi.

1891-yilda Springfild shahridagi kollej o‘qituvchisi Jeymis Neymis bu o‘yinga “basketbol” deb nom berdi. Basketbol inglizcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “qo‘l bilan o‘ynamoq” degan ma’noni bildiradi. 1891-yilda tadbqiq etilgan ba’zi bir o‘yin qoidalari quyidagicha edi:

- Maydoncha chegaralari 28 x 15 m
- To‘pning vazni 600-650 g.
- O‘yinchilarning soni chegaralanmaydi va hokazo.
- Savat balandligi 3 m 5 s.

1891-1920-yillar basketbol o‘yini rivojlanishining birinchi bosqichi bo‘lib hisoblanadi. O‘yinning boshqa davlatlarda vujudga kelishi va rivojlanishi quyidagicha: 1900-yil - Kanada, 1908-yil - Kuba, 1909-yil - Puerto-riko, 1910-yil - Peru, 1917-yil - Braziliya, Urugvay, Meksika, Osiyoda 1900-1913-yillar - Yaponiya, Kitay, Filippinda, 1914-yil - Angliya, 1917-yil - Fransiya.

Basketbol o‘yinining sobiq ittifoqda vujudga kelishi va rivojlanish tarixi. Basketbol sobiq ittifoqda 1920-1921-yillarda o‘rta Rossiya orqali tarqala boshladi. 1920-yildan boshlab Basketbol (Umumiy harbiy tayyorgarlik) tarkibiga kiritildi. Moskvada Basketbol bilan muntazam shug‘ullanishga san’at va teatr vakillari kirishdilar. 1923-yilda tashkil etilgan “Dinamo” jamiyati sportning boshqa turlari bilan bir qatorda basketbolni ham targ‘ib qila boshladi. Xuddi shu yillarda basketbol Markaziy Osiyoda paydo bo‘ldi. 1925-yildan esa O‘zbekistonda ham rivojlana boshladi. SSJIda jismoniy tarbiya va sportning keyingi taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘yin 2 yoki 4 partiyadan iborat bo‘lib, har bir asosida olib boriladi. Ya’ni

o‘yindagi har bir harakat natijasiga qarab to‘pni o‘yinga kiritish huquqi qaysi jamoada bo‘lishidan qat’iy nazar jamoaga mag‘lubiyat yoki g‘alaba keltirishi mumkin. Hal qiluvchi partiyada o‘yin 3 ochko farq qilguncha davom etadi. 1925-yilning yanvarida Moskva jismoniy tarbiya kengashi basketbol bo‘yicha musobaqalarning birinchi rasmiy qoidalarini tuzib tasdiqladi.

Savatning balandligi - 3m 5sm 28x15 o‘lchamli maydonchada o‘tkaziladigan bo‘ldi. 1926-yilda Moskvada yangi qoidalar asosida birinchi musobaqalar o‘tkazildi. 1927-yildan basketbol bo‘yicha Moskva birinchiligi muntazam ravishda o‘tkazila boshladi. “Sobiq Ittifoqida” birinchi bosmadan chiqarilgan basketbol bo‘yicha maxsus adabiyot 1926-yilda paydo bo‘ldi va u basketbol 1926-yilda yana bir qator muhim voqealar bo‘lib o‘tdi, ya’ni voleybol Butunittifoq jismoniy tarbiya kengashining o‘yinlar sho‘basi basketbol bo‘yicha musobaqalarning yagona qoidalarini tasdiqladi. Moskvalik basketbolchilarning shaharlararo uchrashuvi o‘tkazildi. Shu yillarda basketbol faqatgina Moskvada emas, balki Ukrainada, shimoliy Kavkazda, Kavkazortida, Uzoq Sharq va O‘rta osiyo o‘lkalarida ham keng tarqaldi. “SSJI” basketbolda taalluqli muhim voqealardan biri 1928-yilning avgustida birinchi Butunittifoq spartakiadasi vaqtida o‘tkazilgan Ittifoq birinchiligi bo‘ldi. Unga Moskva, USSJ, Shimoliy Kavkaz, Kavkazorti Federatsiyasi va Uzoq Sharq o‘lkasining erkaklar va ayollari qatnashadilar. Musobaqalar chiqib ketish tartibida o‘tkazildi. Moskva ayollar jamoasi va Ukrainaning erkaklar jamoasi g‘olib chiqdilar.

Birinchi Butunittifoq spartakidasida basketbolchilarning uchrashuvlari musobaqa qoidalarining alohida bandlarini yagona tartibda izohlash uchun imkon berdi. Shuni aytib o‘tish kerakki, bu yerda ayollar jamoalari birinchi bor normal o‘lchovli maydonchalarda o‘ynaydilar. Sovet Ittifoqining turli mintaqalarida basketbol taraqqiyotida xilma-xil yo‘nalishlar yuzaga kela boshladi. Ukrainaliklar jamoali o‘yin taktikasini va fidokorona himoyani namoyish etdilar, moskvaliklar kuchli hujumchi ekanliklari bilan ko‘zga tashlandilar, Uzoq Sharqliklar esa past uzatilgan to‘p bilan hujum qilishdek ajoyib yangilik olib keldilar.

Shuni ta’kidlash kerakki, terma jamoalarning Butunittifoq spartakiadasiga tayyorlanishi basketbolning joylarda ommaviy ravishda rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Butunittifoq spartakiadasi arafasida o‘tkazilgan Ukraina birinchiligida jumhuriyatning viloyat shaharlaridan 15 jamoa ishtirok etdi. Kavkazortining eng kuchli jamoasini aniqlash uchun Boku, Tiflis va Erevan shaharlarining jamoalararo uchrashuvlari o‘tkazildi. Xuddi o‘sha 1928-yilda Moskvada doimiy hakamlar uyushmasi tashkil etildi. basketbol taraqqiyotida maktab o‘quvchilarining spartakiadasi ham (1929) katta

ahamiyatga ega edi. Bu spartakiada qatnashchilaridan ko‘pchiligi keyinchalik basketbol ustalari bo‘lib etishdilar.

“Basketbol nazariyasi va uslubiyati” fani mutaxassislik sifatida basketbol bo‘yicha murabbiylik kasbiga tayyorlash talablari bo‘yicha oliy o‘quv yurti o‘quv rejasining ixtisoslik fani hisoblanadi. U oliy ta’lim Davlat ta’lim standartining 5610500 “Sport faoliyati” (faoliyat turlari) ixtisosligi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashning malaka tavsifida belgilangan layoqatlarni shakllanishda umumiy vazifalarning aksariyat qismini bajaradi.

“Jismoniy madaniyat” va “Sport faoliyati” yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash o‘quv rejasidagi bir qator fanlar orasida yetakchi o‘rinni egallaydi. O‘quv dasturida yo‘nalishning har bir bitiruvchisi egallashi lozim bo‘lgan bilimlar, kasbiy malaka va ko‘nikmalar darajasi va hajmi bo‘yicha talablarning zaruriy ko‘rsatkichi beriladi. Ular quyidagilardan iborat:

- ✚ basketbol nazariyasining umumiy asoslari;
- ✚ basketbol o‘rgatish uslubiyati;
- ✚ sport mashqlari nazariyasi va uslubiyati;
- ✚ turli toifadagi jamoalarni tayyorlash xususiyatlari;
- ✚ ommaviy-sport ishlari;
- ✚ basketbol tibbiy-biologik va psixologik asoslari;
- ✚ basketbol bo‘yicha musobaqalar hakamligini tashkil etish va o‘tkazish uslublari;
- ✚ basketbol bilan shug‘ullanishning moddiy-texnikaviy ta‘minoti;
- ✚ talabalarning basketbol bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari;
- ✚ basketbolchilar sport tayyorgarligi darajasini rejalashtirish va nazorat qilish.

Zamonaviy basketbol nazariyasi va uslubiyati muammolarini tushunish, yosh mutaxassislarga mavjud bilimlarni obyektiv baholash, ularning kasbiy mahoratni takomillashtirishning samarali yo‘llarini izlashlari va shu jumladan, ushbu muammolarni hal etish jarayonida yangi yo‘llarni topishga imkon beradi. Tor ma’noda esa materialning bir qismini, ayniqsa, nazariy qismini o‘zlashtirishda muammoli o‘qitish uslubidan foydalanish mumkin. Mustaqil ravishda yoki o‘qituvchi yordamida ko‘pgina o‘quv vazifalarini hal etishga urinish natijasi ko‘proq tushunarli, samarali bo‘lishi mumkin. Agar yoshlarga yuksak axloqiy va pedagogik sifatlar ega, kasbiy faoliyatning barcha sir asrorlarini o‘rgata oladigan, taqlid qilishga arziydigan o‘qituvchi duch kelib qolsa, bu juda katta yutuqdir. Bunday imkoniyatni yoshlar qo‘ldan chiqarmasligi kerak. Biroq, nufuzlilar bilan o‘zaro munosabatlarni o‘zaro qaramlik darajasigacha olib borish ham kerak emas. Bu insonni bo‘shashtiradi, uning

barqarorligini pasaytiradi, shaxsning muhim tamoyillarining rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Mashhur shaxslarga so‘zsiz ishonishga yo‘l qo‘ymaslik kerak, tez-tez ikkilanib “Nega?”, “Bu haqiqatdan ham shundaymikan?” degan savollar qo‘yilishi lozim. O‘rnatilgan va belgilangan ko‘rsatmalar, nazariya va usullarga nisbatan asosli ikkilanishlar bilish jarayonini sog‘lomlashtiradi va shaxs shakllanishi hamda yosh mutaxassislarining kasbiy mahorati o‘rishini tezlashtiradi. Aks holda, mustaqil bo‘lmaslik va o‘ziga ishonmaslik kelajakda ularni quruq ijrochilarga aylantirib qo‘yadi.

Basketbol o‘yiniga o‘rgata olish qobiliyati o‘qitishning samarali va texnologik uslublarni egallash hamda voleybolchilarni har tomonlama tayyorlashni taqozo etadi. Bu o‘yinchilar mahorati o‘rishini ta’minlasada, murabbiyning muhim, ammo yagona qobiliyati qatoriga kirmaydi. U yoki bu ko‘rinishda murabbiyning boshqa ko‘pgina qobiliyatlariga tayanadi, ularni qisman o‘ziga singdiradi. O‘qitishda qobiliyatga egalik bolalar murabbiylari uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Yosh o‘yinchilar o‘rganishning ushbu bosqichida voleybolga ilk qadamlarni qo‘yishadi, ularning mahorat cho‘qqisiga yetaklovchi yo‘llari ancha uzoqdir. Yosh o‘yinchilarni mashqlarga o‘rgatish ko‘p vaqt va ko‘p kuch talab etadi, shuning uchun bu bosqich juda muhim hisoblanadi. Aynan u oxir-oqibatda BO‘SM o‘quvchilari kelajakda haqiqiy mahoratli o‘yinchilar bo‘la olishi mumkinligini aniqlab beradi. Murabbiy mahoratini quyidagi qobiliyatlar: konstruktiv (yaratuvchilik) va prognozlash (mo‘ljallash, bashorat qilish) tashkil etadi. Murabbiyning yaratuvchanlik qobiliyati unga mavjud materialdan takomillashgan o‘yinchini yaratish asosida uning mahoratini rivojlantirishda eng samarali uslublarni tushunish va tanlash imkonini beradi. Shuningdek, tanlangan uslublarni amaliyotda qo‘llay bilish ham kerak. Biomashina yaratuvchisi rolini muvaffaqiyatli bajarish uchun murabbiyga o‘yinchilar mahoratini barcha tomonlari vujudga kelish mexanizmini aniq tasavvur qilish, sportchilar biomashinasi qurilmalari bo‘yicha muhandislik qobiliyati zarurdir.

Shuningdek, u butun jamoaning ham yaratuvchisi bo‘lishi lozim. Yaratuvchanlik jarayoni bir necha yillarni egallaydi, shu sababli murabbiyning ehtimoliy kelajagidan kelib chiqqan holda, har bir o‘yinchini va butun jamoaning tayyorgarlik tizimini rivojlantirish qobiliyati alohida ahamiyat kasb etadi. O‘yinchilar va jamoa istiqbolini aniqlashda murabbiyning muhim qobiliyati – prognozlash (oldindan ko‘ra bilish) juda katta ahamiyatga ega. Oldindan ko‘ra bilish qobiliyati murabbiyga o‘yinchilarning istiqboli, vaqt o‘tishi bilan ularning sonini aniqlash imkonini beradi. U saralash jarayonida iqtidorlilarni topa olish, yosh o‘yinchini qobiliyatiga qarab tarbiyalash, vaqt davomida uning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash imkonini beradi. O‘yinchilar



istiqbolini ko‘ra bilish mahoratni takomillashtirishning eng samarali yo‘llarini tanlashda juda katta ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Goncharova O.V., Qipchoqov B.B., Boltayev Z.B. Basketbol. –T.: “lider Press”, 2008. –33 b.
2. Железняк Ю.Д., Петров П.К. Основы научно-методической деятельности в физической культуре и спорте. // Учеб. пособие для студ. ВУЗов. – М.: “Академия”, 2002. – 264 с.
3. Годик М.А. Физическая подготовка футболистов. –М.: ТерраСпорт, 2006. – 272 с.